

---

## Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash

**2019 yil 28 noyabrdagi «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-4539-son Qarori bilan 2020 yil 1 yanvardan boshlab:**

**-2023 yil 1 yanvarga qadar** Milliy katalog va Reestrda kiritilgan hunarmandlar uchun kalendar yili davomida hunarmandchilik mahsulotlarini (ishlar, xizmatlar) **so'tishdan tushgan tushumi 100 mln. so'mdan oshgan, biroq 1 mlrd. so'mdan ko'p bo'lmagan miqdori uchun** yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan **yagona soliq to'lov stavkasi 2 foiz** (hozirgi kunda 4 foiz) miqdorida to'lanadi;

-hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha yangidan davlat ro'yxatidan o'tishda to'lanadigan davlat boji yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun **amalda belgilangan davlat boji miqdorining**

**50 foizi miqdorida** (amalda 100 foiz) o'rnatildi;

-Milliy katalogga kiritilgan hunarmandlarga **shogirdlar soni bo'yicha cheklovlar bekor qilindi;**

-Pensiya jamg'armasiga belgilangan **yagona ijtimoiy to'lovning 50 foizini to'lash tartibi** shaharlarda ro'yxatdan o'tgan va aynan xalq amaliy san'ati mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi «Hunarmand» uyushmasi a'zolariga ham tatbiq etildi (amalda 100 foiz).

-Dastur doirasida imtiyozli kreditlar ajratilish tartibi

-Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasida (hozirgi kunda 16 foiz);

-18 oy muddatga ajratiladi

-bazaviy hisoblash miqdorining 250 baravaridan oshmagan miqdorda (55mln. 750 ming so'm)

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan bank kreditlari foiz stavkalarining to'rtidan bir qismi ya'ni 25foizi qoplab beriladi.

### **Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan quyidagi yo'nalishlarga olingan kreditlar bo'yicha kompensatsiya taqdim etilmaydi.**

- avval olingan kreditlarni yoki har qanday boshqa qarzlarni qaytarish;
- spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish;
- savdo-vositachi tashkilotlar va umumiy ovqatlanish korxonalarining aylanma mablag'larini shakllantirish;
- savdo ob'ektlari va umumiy ovqatlanish ob'ektlari qurishni moliyalashtirish;
- tavakkalchilikka asoslangan qimor va boshqa o'yinlarni tashkil etish, shuningdek boshqa maqsadlar uchun uskunalar xarid qilish.
- kredit tarixi yomon bo'lgan, xususan, tijorat banklari kreditlari bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzlari bor jismoniy va yuridik shaxslarga;
- byudjetga to'lovlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzlari bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarga tatbiq etilmaydi

### **MUROJAT UCHUN TELEFONLAR:**

**Toshloq tuman Tadbirkorlikka ko'maklashish bo'limi**

**Uyali telefoni: 91-107-83-87**

**Toshloq tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi**

---

**Xizmat telefoni: 73-238-00-09**

1 / 2

**Toshloq tuman xokimligi Moliya bo'limi**

**Uyali telefoni: 98-274-10-08**

---

**Toshloq tuman Iqtisodiyot va sanoat bo'limi**

**Xizmat telefoni: 73-238-07-28**

2020-01-27 14:26:37